

Yangi O'zbekistonda umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish tizimi va milliy cholg'ularning o'rni

Farida Ural-qizi Uralova
ORCID: 0009-0002-0834-9330
faridauralova45@gmail.com
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi O'zbekistonda umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi tizimining holati va milliy cholg'u asboblari - qashqar rubobi va dutorni o'quv jarayoniga joriy etishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot muammosi: PQ-112-son qaror (2022) talablarini amalda bajarish uchun qaysi pedagogik model samarali? Metodologiya: 77-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Iqtidor» milliy cholg'u ansambli (5 o'quvchi) tajribasida pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va qiyosiy tahlil qo'llanildi. Natijalar: o'quvchilarning 94% musiqa darsiga qiziqishi oshdi, 89% o'z-o'ziga ishonchi kuchaydi, 96% jamoaviy ko'nikmalarini rivojlantirdi. Ilmiy tomondan: umumta'lim maktabida milliy cholg'u ansamblini tashkil etishning 2 bosqichli pedagogik modeli birinchi marta taklif etiladi.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, milliy cholg'ular, qashqar rubobi, dutor, "Iqtidor" ansambli, umumta'lim maktabi, pedagogik model, milliy meros

Music teaching system and the role of national instruments in general education schools of New Uzbekistan

Farida Ural-kyzi Uralova
ORCID: 0009-0002-0834-9330
faridauralova45@gmail.com
Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the music education system in general education schools of New Uzbekistan and the pedagogical foundations for introducing national musical instruments - the Kashgar rubab and dutar. Based on the experience of «Iqtidor» ensemble (5 students, School No.77), a 2-stage pedagogical model is proposed for the first time. Results: 94% increase in interest in music lessons, 89% growth in self-confidence, 96% development of teamwork skills.

Keywords: music education, national instruments, qashkar rubab, dutor, "Iqtidor" ensemble, comprehensive school, pedagogical model, national heritage

KIRISH (Introduction)

Yangi O'zbekistonda musiqa ta'limi va milliy musiqa meros birligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorida «Hayotimga hamrohdir cholg'u» shiori ostida har bir umumta'lim maktabi o'quvchisining kamida bitta milliy cholg'uni - jumladan, qashqar rubobi yoki dutorni - o'zlashtirishini ta'minlash belgilandi. Bu milliy cholg'ularni maktab ta'limiga joriy etishning huquqiy poydevorini mustahkamladi. [2]

Biroq PQ-112-son qaror talablari amaliyotda jiddiy muammoga duch kelmoqda, qishloq va tuman maktablarida, jumladan Yakkabog' tumanidagi maktablarda, musiqa o'qituvchilarining ko'pchiligi milliy cholg'u - qashqar rubobi va dutor - cholg'ularni qanday o'rgatish kerakligini bilmaydi deb bo'lmaydi albatta. Mavjud darsliklar musiqa ta'limida asosan tinglash va bilishga mo'ljallangan bo'lib, milliy cholg'u o'qitishga yo'naltirilmagan. Metodik qo'llanmalar tanqis, amaliy tajriba esa deyarli yo'q edi. [14, 15]

Mazkur maqolaning maqsadi: 77-umumta'lim maktabida (Yakkabog' tumani, Qashqadaryo viloyati) o'zim tomonimdan tashkil etilgan «Iqtidor» milliy cholg'u ansambli tajribasini ilmiy umumlashtirish va umumta'lim maktabida qashqar rubobi va dutorni o'qitishning samarali 2 bosqichli pedagogik modelini birinchi marta taklif etish. Tadqiqot musiqa ta'limi, milliy meros va pedagogik model masalalariga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI (Literature Review)

Milliy cholg'ular - qashqar rubobi va dutor cholg'usini o'qitish metodikasi bo'yicha bir qator muhim ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Nurmatov H. (1993) qashqar rubobining tuzilishi, sozlanishi va bosqichma-bosqich o'qitish metodikasini batafsil yoritdi. [9] Nazarov O. (2018) ushbu cholg'uni zamonaviy o'qitish talablariga moslashtirdi. [10] Asilov M.A. va Vasilyev F.N. (1969) dutor darsligida milliy cholg'uni maktab ta'limiga integratsiya qilishning birinchi amaliy urinishini amalga oshirdi. [11] Ushbu asarlar musiqa ta'limida milliy cholg'u metodologiyasining ilmiy poydevorini yaratdi.

Musiqa ta'limining falsafiy asoslarini Forobiy (IX-X asr) «Kitobul-musiqa al-kabir» asarida bayon etgan: musiqa o'qitishda induksiya, deduksiya va bosqichma-bosqich murakkablashish tamoyillari zamonaviy pedagogikada ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. [13] Xaydarov X.S. (2024) bu merosni zamonaviy musiqa pedagogikasi bilan bog'lab ilmiy asoslagan. Karomatov F.M. (1972) o'zbek xalq musiqasidagi cholg'ularning o'zaro uyg'unligi nazariyasini ishlab chiqqan. [12]

No'monov I. (2025) tadqiqotida ta'kidlanganidek, milliy cholg'u - qashqar rubobi va dutor - o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat musiqiy asbob, balki madaniy, estetik va ruhiy

qadriyatlar tizimining ajralmas bo'lagidir. [18] Djurayev N. (2024) yangi O'zbekiston strategiyasida musiqa ta'limi islohotlarining o'rnini ilmiy asoslab berdi. [17] O'zim ushbu sohada uchta xalqaro maqola chop ettirdim va qashqar rubobining tarixi [5], dutorning kelib chiqishi [6] va o'quvchi tarbiyasida musiqa ta'limining o'rnini [7] bo'yicha tadqiqotlar ushbu maqolaning metodologik asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlilidagi bo'shliq shundaki: mavjud tadqiqotlar individual cholg'u o'qitishga qaratilgan bo'lib, umumta'lim maktabida milliy cholg'u ansamblini tashkil etishning tizimli va amalda sinab ko'rilgan pedagogik modeli hali ishlab chiqilmagan edi. Mazkur tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2025-2026 o'quv yilida Yakkabog' tumani 77-umumta'lim maktabida amalga oshirildi. Tadqiqotning ob'ekti - maktabda "Iqtidor" milliy cholg'u ansamblini tashkil etish va rivojlantirish jarayoni hamda Respublika bo'ylab o'tkaziladigan "iqtidor" maktab ansambli tanlovida qatnashishga qaratilgan. Predmeti - qashqar rubobi va dutorni o'qitish orqali o'quvchilarning musiqiy, ijodiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik model.

Tadqiqotning asosiy qarashlari qashqar rubobi va dutorni o'qitishning 2 bosqichli modeli umumta'lim maktabida samarali qo'llanilishi mumkin, milliy cholg'u ansambli o'quvchilarning musiqa ta'limiga qiziqishini, o'z-o'ziga ishonchini va jamoaviy ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu model PQ-112-son qaror talablarini to'liq bajarish imkonini beradi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish; 8 oylik pedagogik kuzatuv; tajriba-sinov ishlari; o'quvchilar (n=5) maktab va tuman musobaqalari natijalarini tahlil qilish; ilmiy-pedagogik adabiyotlarni umumlashtirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Huquqiy-normativ asos

"Iqtidor" milliy cholg'u ansamblini tashkil etish bevosita PQ-112-son qaror talablaridan kelib chiqdi. [2] 2022-yilgi PQ-112-son qarordan so'ng 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son qaror musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamladi. [16] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yildagi yangi tahririda milliy madaniy merosni saqlash davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida mustahkamlandi. [17] Ushbu normativ asos maktablarda qashqar rubobi va dutor o'qitishni kengaytirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

"Iqtidor" ansambli: tashkil etish va tarkibi

"Iqtidor" milliy cholg'u ansambli 77-umumta'lim maktabida muallif tomonidan 2024-yilda tashkil etildi. Ansambl tarkibiga 5-8-sinf o'quvchilaridan 5 nafar ishtirokchi tanlov asosida qabul qilindi: qashqar rubobida 1 nafar, dutorida 3 nafar, doirada 1 nafar. Qashqar rubobi yetakchi melodik liniyani olib bordi [5], dutorning

mayin va iliq tembri garmonik-ritmik asos yaratdi. [6] Ansambl repertuari 2 qatlamda shakllantirildi: xalq kuylari (boshlang'ich), va ikkinchi etap xalq kuylari va bastakorlar ijodidan foydalangan holda oddiydan murakkabga qarab yo'naltirildi.

Maktabda milliy cholg'u ansamblini tashkil etishning pedagogik modeli

"Iqtidor" ansambli tajribasidan kelib chiqib, maktabda milliy cholg'u ansamblini tashkil etishning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Bu model qashqar rubobi va dutorni o'qitishning ilmiy asoslangan ketma-ketligini belgilaydi:

1. Tayyorgarlik bosqichi (1 oy): maktab rahbariyati va ota-onalar bilan kelishuv; qashqar rubobi va dutor cholg'ularini ta'minlash; repertuar tanlash; tanlov asosida o'quvchilarni qabul qilish.

2. Boshlang'ich ta'lim bosqichi (2-3 oy): qashqar rubobi va dutor tuzilishi va sozlanishini o'rganish; elementar zarb usullari; oddiy xalq kuylarini yoddan o'rganish; nota elementlari. An'anaviy «og'izdan quloqqa» usuli zamonaviy nota tizimi bilan uyg'unlashtirildi. [11]

3. Ansambl ishi bosqichi (3-4 oy): birgalikda ijro ko'nikmalarini shakllantirish; repertuarni oddiydan murakkabga qarab kengaytirish, sahna madaniyati, musobaqalarga tayyorgarlik. Forobiyning musiqa ta'limidagi bosqichma-bosqich murakkablashish tamoyilidan foydalanildi. [13]

4. Namoyish bosqichi (musobaqa): maktab va tuman tadbirlarida qatnashish; musobaqa natijalarini tahlil qilish va pedagogik modelni takomillashtirish.

TAYYORGARLIK 1 oy - Kelishuv - Cholg'u ta'minoti - Repertuar tanlash - O'quvchi tanlash

BOSHLANG'ICH TA'LIM 2-3 oy - Cholg'u tuzilishi - Zarb usullari - Oddiy kuylar - Nota elementlari

ANSAMBL ISHI 3-4 oy - Birgalikda ijro - Repertuar kengayishi - Sahna madaniyati - Musobaqaga tayyorlik

NAMOYISH Musobaqa - Maktab tadbirlari - Tuman musobaqasi -

O'quvchilarning «Iqtidor» milliy cholg'u ansamblining musiqa ta'limiga, milliy merosga va o'quvchilar tarbiyasiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatganini isbotladi.

So'rovnoma natijalari 2 bosqichli pedagogik modelning samaradorligini to'liq tasdiqladi. Ayniqsa e'tiborli ko'rsatkich - ota-onalarning 100% farzandlarida milliy cholg'ularga va milliy merosga qiziqish ortganligini qayd etgani. Bu natija musiqa ta'limi va milliy meros birligining o'quvchi tarbiyasiga kompleks ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. [7]

Musobaqa natijalari ham pedagogik modelning amaliy samaradorligini ko'rsatdi: «Iqtidor» ansambli maktab bosqichida 2-o'rin, tuman bosqichida esa faxriy yorliq va rag'batlantiruvchi sovg'alarga sazovor bo'ldi. Bu natija qisqa muddatda - atigi 8 oy ichida - maktabda professional darajadagi milliy cholg'u ansamblini tashkil etish mumkinligini ko'rsatdi.

MUHOKAMA

"Iqtidor" ansambli tajribasining natijalari shuni isbotladiki, umumta'lim maktabida qashqar rubobi va dutorni o'qitish asosida milliy cholg'u ansamblini tashkil etish PQ-112-son qaror talablarini to'liq bajarish imkonini beradi. [2] Milliy cholg'u - qashqar rubobi va dutor - o'quvchilar uchun nafaqat musiqiy asbob, balki milliy meros, estetik tarbiya va milliy o'zlikni anglash vositasi hamdir. [18]

Musiqqa ta'limida milliy merosdan foydalanish o'quvchida uchta muhim sifatni bir vaqtda shakllantiradi: estetik did - go'zallikni his etish; axloqiy fazilatlar - sabr, mehnatsevarlik, jamoaviy mas'uliyat; milliy o'zlikni anglash - o'z xalqining merosi bilan iftixor qilish. So'rovnomaning 96% jamoaviy ko'nikmalar va 98% milliy cholg'uga muhabbat ko'rsatkichlari bu xulosani tasdiqlaydi. [7]

Tajribani boshqa maktablarga kengaytirish uchun uchta asosiy bosqich zarur: birinchi - moddiy-texnik baza, ya'ni maktablarni qashqar rubobi va dutor bilan ta'minlash; ikkinchi - malakali kadrlar, ya'ni musiqqa o'qituvchilarini milliy cholg'u o'qitish metodikasi bo'yicha qayta tayyorlash; uchinchi - metodik qo'llanmalar, ya'ni taklif etilgan pedagogik modelni amaliyotda tatbiq etishga yordam beruvchi ko'rsatmalar. Ushbu uch bosqichlar bosib o'tilsa, model barcha umumta'lim maktablarida qo'llanilishi va foydali bo'ladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

1. Yangi O'zbekistonda milliy cholg'ularni - qashqar rubobi va dutorni - umumta'lim maktablariga joriy etishning huquqiy-normativ asosi to'liq yaratilgan: PQ-112-son qaror (2022), PQ-399-son qaror (2024) va yangi Konstitutsiya (2023) bu sohada mustahkam poydevor ta'minlaydi. [2, 16, 17]

2. Maktabda milliy cholg'u ansamblini tashkil etish o'quvchilarning musiqqa ta'limi sifati va milliy merosga nisbatan qiziqishiga kuchli ta'sir etuvchi kompleks pedagogik vosita ekanligi so'rovnoma natijalari bilan tasdiqlandi: 94% musiqqa ta'limiga qiziqish, 89% o'z-o'ziga ishonch, 96% jamoaviy ko'nikmalar, 98% milliy cholg'uga muhabbat.

3. Taklif etilgan pedagogik model - tayyorgarlik, boshlang'ich ta'lim, ansambl ishi va namoyish - birinchi marta ilmiy asosda tizimli ishlab chiqildi va 77-maktabda amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Model boshqa maktablar uchun ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan universal yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

4. Maktab bosqichida 2-o'rin va tuman bosqichida faxriy yorliq bilan taqdirlangan «Iqtidor» ansambli tajribasi musiqqa ta'limini milliy meros bilan uyg'unlashtirish mumkinligini va umumta'lim maktabida avval o'rta darajada keyinroq bir necha yillar mobaynida esa professional darajadagi milliy cholg'u ansamblini tashkil etish mumkinligini ko'rsatadi.

Amaliy tavsiyalar: barcha umumta'lim maktablarida 4 bosqichli model asosida milliy cholg'u ansambllari tashkil etish; viloyat va tuman miqyosida qashqar rubobi va dutor festivallari o'tkazish; musiqa o'qituvchilari uchun milliy cholg'u o'qitish metodikasi bo'yicha malaka oshirish kurslari yaratish; 5-7-sinf «Musiqqa» darsliklariga milliy cholg'ular tarixi bo'limini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021. — B.318–325.
- [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarori «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». — lex.uz
- [3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni // Xalq so'zi, 2017, 8-fevral.
- [4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. — lex.uz
- [5] Uralova F.U. Qashqar rubobi — o'zbek xalqining musiqa merosi // Modern Science and Research. — 2025. — Vol.4, Issue 12. — B.643–647. DOI: 10.5281/zenodo.17983665
- [6] Uralova F.U. Dutor cholg'usining kelib chiqishi, tarixi va ijro usullari // International Journal of Integrated Education (IBET). — 2025. — Vol.6, Issue 3. — B.84–87. DOI: 10.5281/zenodo.19105494
- [7] Uralova F.U. O'quvchi tarbiyasida musiqa fanining o'rni // Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences. — 2025. — B.118–120. DOI: 10.5281/zenodo.17204866
- [8] Nurmatov H. Qashqar rubobi darsligi. — Toshkent: Musiqqa, 1993. — B.5–8.
- [9] Nazarov O'. Qashqar rubob darsligi. — Toshkent: Musiqqa, 2018. — B.12–15.
- [10] Asilov M.A., Vasilyev F.N. Dutor darsligi. — Toshkent: O'qituvchi, 1969. — B.4–7.
- [11] Karomatov F.M. O'zbek xalq musiqa ijrochiligining tarixidan. — Toshkent: Fan, 1972. — B.84–86.
- [12] Xaydarov X.S. Abu Nasr Forobiy ilmiy merosida musiqa ta'limi // Inter Education & Global Study. — 2024. — №7. — B.69–75. ISSN: 2992-9024
- [13] Djurayev N. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimidagi islohotlar. — Toshkent, 2024. — B.112–118.
- [14] Rajabov X.J. Musiqqa ta'limida zamonaviy metodlar // Science and Education. — 2022. — B.5.
- [15] Shukurjonova X.F., Ayxo'jayeva Sh. Musiqqa ta'limida cholg'u ijrochiligining uzviyligini ta'minlash // Science and Education. — 2022. — B.3.

[16] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son qarori. — lex.uz

[17] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri). — Toshkent: O‘zbekiston, 2023. — 49-modda.

[18] No‘monov I. Rubob cholg‘usining kelib chiqishi va taraqqiyoti // Ustozlar uchun (pedagoglar.org). — 2025. — 74-son. — B.29–31.

[19] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. — Toshkent: O‘zbekiston, 2018. — B.137–151.